

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SALOHIYATI YUKSALISHINING IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

TATU Fargona filiali oqituvchisi

S.Sodiqov

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnik, madaniy-ma'naviy, siyyosiy-huquqiy, diniy-axloqiy, estetik taraqqiyotining asosida insonning ongli faoliyatini tashkillovchi va determinanti yoshlar salohiyati ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yangilanish, innovatsiya, yoshlar salohiyati, intellektual salohiyat, ma'naviy salohiyat, inson kapitali, inson taraqqiyoti, inson resurslari.

Ma'naviy yangilanishning muvaffaqiyatli amalga oshishi ma'lum mezonlar, omillarga, asoslanadi. Ma'naviy yangilanish mezonlari jamiyat, shaxsning ma'naviy ongiga ta'sir etib, uni shakllantiruvchi mezonlar: milliy hususiyatlar, qadriyatlar, milliy turmush tarzi, milliy-tarixiy meroslar hisoblanadi. Bundan tashqari milliy ijtimoiy-tarixiy makonga tegishli bo'lgan barcha iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, estetik va boshqa tizimlar asosida, ularning insonga ta'siri natijasida shakllanuvchi ma'naviy ong elementlari, g'oyalar, dunyoqarash, ilmiy nazariyalar. Ular asosida shaxs dunyoqarashi shakllanadi va bunday dunyoqarash albatta, milliy yangilanishga ta'sir etadi.

Yuqorida qayd etilgan sohalar jamiyatda ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda ma'naviy mezonlarni shakllantiradi. Ma'naviy yangilanish omillariga bizningcha, quyidagilarni keltirish mumkin:

- ma'naviy yangilanishning iqtisodiy omillari;
- ma'naviy yangilanishning siyosiy omillari;
- ma'naviy yangilanishning huquqiy va estetik omillari;
- ma'naviy yangilanishning ilmiy texnologik omillari.

Ma’naviy yangilanishning omillarini shakliga ko‘ra quyidagicha tavsiflaymiz:

- milliy-tarixiy omillari;
- innovatsion omillari.

Qayd etilgan omillarga atroflicha to‘xtalib o‘tamiz:

Ma’naviy yangilanishning iqtisodiy omillari jamiyatda moddiy ishlab chiqarish, iqtisodiy sohaning barcha elementlari, iqtisodiy ishlab chiqarish kuchlari, bu sohada yuzaga kelayotgan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy sohada o‘zgarishlarga olib keluvchi texnologik potensial va boshqalar. Bu yerda masala jamiyatning iqtisodiy sohasi va unda yuzaga kelayotgan munosabatlar ma’naviy taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatish mumkin? Shaxs va jamiyatning iqtisodiy hayotiga tegishli faoliyati uning ma’naviyati va ma’naviy faoliyati bilan bog‘langan.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida iqtisodiy taraqqiyot ma’naviy taraqqiyotga ham sabab bo‘lgan. O‘zbekiston tarixida hamda Markaziy Osiyo va butun Yevropa tarixida iqtisodiy ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan. “Buyuk Ipak yo‘li nafaqat iqtisodiy munosabatlar, balki, madaniy va ma’naviy munosabatlarning taraqqiyoti uchun ham ulkan imkoniyatlar yaratdi. Xitoya islom dinining tarqalishi o‘z davrida ulkan global ahamiyatga ega bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘lisiz amalga oshmagan bo‘lar edi. Bu yo‘l Xitoyni Markaziy Osiyo orqali Yevropa bilan shunchaki bog‘labgina qolmasdan, qadimgi sivilizatsiyaning, keyinroq Sharq Uyg‘onish davrining vujudga kelishi ulkan strategik ahamiyatga ega bo‘ldi”[1].

Ijtimoiy taraqqiyot talablaridan biri yuksak iqtisodiyotga yuksak ma’naviyatning moslashishi hisoblanadi. Iqtisod taraqqiy etib, ma’naviyatning yuksaltirish iqtisodiy sohaning inqiroziga olib keladi.

Albatta, jamiyatning asosida turgan iqtisodiy va ma’naviy munosabatlarning o‘zaro dialektik aloqadorligi nuqtayi nazaridan iqtisodiy taraqqiyot ma’naviyat taraqqiyotini ham belgilaydi. Ma’naviyat va uning barcha shakllari va elementlarida iqtisodiy sohaning hususiyatlari aks etadi. Bu ikki sohani bog‘lab turuvchi omil – shaxs va uning salohiyati, inson omili. Insonning iqtisodiy va ma’naviy salohiyati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, dialektik aloqadorlikda iqtisodiy va ma’naviy sohalarning taraqqiyoti

bir-birining taraqqiyotga ta'sir etadi. Jamiyatning bu ikki muhim sohasining taraqqiyoti insonga yo'naltirilgan. Bu sohalarda yuzaga keladigan yutuqlar, kirib kelayotgan progressiv elementlar inson hayotining har tomonlama yaxshilanishiga hizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining tarixiga nazar solsak, iqtisodiy yuksalish ma'naviy yuksalish bilan uyg'unlashgan holatda jamiyat yuksak taraqqiyotga erishgan. Bunga Uyg'onish davrlari, sivilizatsiya taraqqiyoti bunga misol bo'la oladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida milliy ma'naviy ong va milliy aksiologik ong taraqqiyotining davr talablariga mos kelishi, progressiv globallashuv talablariga hamda milliy ehtiyojlarga javob berishi jamiyat va uning a'zolarining rivojlanishiga hizmat qiladi. Xususan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jaaryonlari va islohotlarning to'laqonli amalga oshuvi hamda samarali natijadorligi jamiyat a'zolarining ma'naviy ongi, ma'naviy tafakkuri, qadriyatlariining mazkur jarayonlarni to'g'ri aks ettirishiga bog'liq. Yoshlarning ongida anglangan ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishi va ularning qondirilishi jamiyatning istiqbolli taraqqiyotining omillaridan biri bo'lib hizmat qiladi. Ayniqsa, "Milliy qadriyatlarning millatning keyingi dunyoviy taraqqiyotiga hizmat qila olishi uning turli ko'rinishdagi ma'naviy tahdidlar, asosan XXI asrda avj olayotgan "ommaviy madaniyat" xavfidan qay darajada himoyalanganligi bilan harakterlidir" [2].

Ta'kidlash zarurki, har qanday milliy ma'naviyat bugungi kunda alohida, boshqa jamiyatlar va millatlar madaniyati va ma'naviyatiga o'zaro bog'lanmagan xolda yashay olmaydi. Tobora kuchli dinamik hususiyatga ega bo'lib va globallashib borayotgan hozirgi davrda milliy ma'naviyat globallashuv olib kelayotgan ma'naviyat ta'sirida milliy hususiyatlaridan yiroqlashib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlarning milliy ma'naviy salohiyatini yanada taraqqiy ettirish va yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish zarur. Chunki yuqori ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarning faoliyati jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining milliy ma'naviyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ya'ni milliy ma'naviyatning vatanparvarlik, tolerantlik, o'zaro hamkorlik, jamoaviylik, bir-birini qo'llab quvvatlash kabi elementlari yoshlarning

iqtisodiy ongining ham taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning iqtisodiy sohada faolligi, samarali mehnat faoliyati milliy ma'naviy salohiyat kontekstida yanada taraqqiy etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Юлдашева.Ф Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари Автореферат. – Тошкент.: “Impress Media” 2019. – Б.20-21
2. Яхшиев А.Ж.Глобаллашув шароитида ёшларда ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш шартлари. Глобаллашув ва миллий маънавий тараққиёт тенденциялари.Респ.илмий-амалий анжумани маърузалар тўплами (2015 йил 23 май). –Тошкент.:Тошкент кимё-технол.институти, 2015. –Б.304.
3. Sodiqov, S. (2024). YOSHLARDA FAOL POZITSIYANI SHAKLANTIRISHNING MILLIY-TARIXIY ASOSLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 45-45.
4. Subxoniddin o'g'li, S. S. (2023). Yangi O 'zbekistonda yoshlarda faol pozisiyani shakllantirish masalalari. *Ta'liming zamonaviy transformatsiyasi*, 2(1), 1150-1153.
5. Subixoniddin o'g'li, S. S. (2022). O'zbekistonda Ma'naviy Yangilanish Omillari. *Miasto Przyszlosci*, 26, 94-96.